

**GULLI O'SIMLIKLARNING VEGETATIV KO'PAYISHI VA ULARNING XILMA-XILLIGI**

**Maxkamova Gulshanoy Juraboyevna**

*Farg'ona viloyati Bag'dod tumani 20-umumiyl o'rta ta'lim maktabi tabiiy fan  
o'qituvchisi*

**ВЕГЕТАТИВНОЕ РАЗМНОЖЕНИЕ ЦВЕТКОВЫХ РАСТЕНИЙ И ИХ  
РАЗНООБРАЗИЕ**

**Махкамова Гульшаной Джуррабоевна**

*Генерал № 20, Багдадский район, Ферганская область учитель  
естественные науки в средней школе*

**VEGETATIVE PROPAGATION OF FLOWERING PLANTS AND THEIR  
DIVERSITY**

**Makhkamova Gulshanoy Juraboyevna**

*General number 20, Baghdad district, Fergana region teacher of the natural  
science at a secondary school*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Gulli o'simliklarning xilma-xilligi ekologik sharoitning o'zgarishi bilan bog'liqligi Ular million yillar mobaynida o'zgarib, yangi muhitga, sharoitga moslasha borgan. Gulli o'simliklar vakillarining ko'pchilik daraxt o'simliklar, parenxima to'qimalarida efir moylari ajratuvchi hujayralari borligi bilan xarakterlanadi. Gulli o'simliklarni xilma-xilligi hozirgi kunda afsuski, ularning dorivor vakillari kamayib ketmoqda. Ularning tarqalishi areallarining qisqarib borayotganligi, tashqi muhitning keskin o'zgarib borayotganligi ham bu bo'lim vakillarining ba'zilarini yashash shoroitiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** gulli o'simliklar, ekologiya, sharoit, muhit, madaniy o'simliklar, meva, ildiz, poya, barg.

**Аннотация:** В данной статье разнообразие цветковых растений связано с изменениями условий окружающей среды. Они изменились за миллионы лет и адаптировались к новым средам и условиям, характеризуются наличием делящихся клеток. К сожалению, в настоящее время сокращается разнообразие цветковых растений, уменьшаются и их лекарственные представители. Сокращение ареалов их распространения и резкая смена внешней среды также отрицательно влияют на условия жизни некоторых представителей этого отряда.

**Ключевые слова:** цветковые растения, экология, условия, окружающая среда, культурные растения, плод, корень, стебель, лист.

**Annotation:** In this article, the diversity of flowering plants is related to changes in environmental conditions. They have changed over millions of years and adapted to new environments and conditions. essential oils are characterized by the presence of dividing cells. Unfortunately, the variety of flowering plants is currently decreasing, and their medicinal representatives are decreasing. The reduction of their distribution areas and the sudden change of the external environment also have a negative effect on the living conditions of some representatives of this section.

**Key words:** flowering plants, ecology, conditions, environment, cultivated plants, fruit, root, stem, leaf.

## KIRISH

Gulga inson qadim zamonlardan qiziqib kelgan. Ular bilan bog'liq bo'lgan turli afsonalar ham yaratilgan. Gul o'simliklar hayotida katta ahamiyatga ega. Undan meva (urug') hosil bo'ladi. Siz bodom, o'rik, shaftoli, olma, nok, jiyda kabi mevali daraxtlarning gulini, erta bahorda, yozda va kuzda ochiladigan yovvoyi va madaniy o'simliklar gullarini ko'p ko'rgansiz. O'simliklarning guli novdasiga bandi bilan birikib turadi va unga gulband deyiladi. Gulbandning yuqori qismida biroz kengnygan joy — gulo'rni bor, unda gulning hamma qismlari joylashadi. Gulandi shakli va o'lchami bilan biridan farq qiladi. Tabiatda gulandi rivojlanmaydigan o'troq gullar ham uchraydi. Gul — quyidagi to'rt qismdan tashkil topgan Gulkosacha — gulni tashqi tomondan ocrab turadigan qavat U gulkosachabarglardan tashkil topgan. Gulkosacha yashil va boshqa ranglarda bo'ladi. Gultoj — guldag'i gulkosachadan ichkarida joylashgan gulqo'rg'on qavati. U gultojbarglar yig'indisidan iborat. Gultoj turli rangda bo'ladi. Changchi — gulqo'rg'on ichida joylashgan muhim qismi. U ikki qismdan: changdon va changchi ipidan tashkil topgan. Changchi iplari changdonni ushlab turadi va gulo'rni bilan bog'laydi. O'simlikning turiga qarab changchilar bittadan bir nechtagacha bo'lishi mumkin. Changchi iplanning soni va shakli gulga bog'liq. Shunga ko'ra, changchi iplari alohida, qo'shilib yoki tutam hosil qilib gulo'rni joylashadi. Ayrim gullarda changchi iplari bo'lmaydi Urug'chi — gulning o'rtasida (markazida) joylashgan eng muhim qismi. U tuguncha, ustuncha va tumshuqchadan iborat. Tuguncha — urug`chining kengaygan pastki qismi. Uning ichida urug'kurtak joylashgan. Tugunchadan meva hosil bo'ladi. Tugunchalar gulning boshqa a'zolariga nisbatan joylanishiga qarab ostki va ustki bo'ladi. Tuzilishiga ko'ra, tuguncha bir va ko'p uyali bo'ladi. Ustuncha — urug`chining o'rtaligi qismi. U tuguncha bilan tumshuqchani birlashtirib turadi. Uning ichi g'ovak bo'ladi. Tumshuqcha — urug`chining (ustunchaning) eng yuqori qismi — uchi. U changlarni ushslash uchun xizmat qiladi.

Gulqo'rg'on — gul ochilguncha changchi va urug'chilarni o'rabi 5 tashqi ta'sirdan saqlab turadi. U oddiy yoki murakkab bo'ladi. Gulqo'rg'on bo'laklarining rangi asosan bir xil bo'lsa uni oddiy gulqo'rg'on deyiladi. Oddiy gulqo'rg'on yashil rangli oddiy gulkosacha yoki gultojdan iborat 2 bo'ladi. Lola, chuchmoma, gulsafsarning guli oddiy gulqo'rg'onli bo'ladi. Yer yuzidagi gulli o'simliklar 533 oila, 13000 turkum va 250

mingdan ortiq turni o'z ichiga olishi aniqlangan. Bu o'simliklarning har biri o'ziga xos belgilar bilan birbiridan farq qiladi. Gulli o'simliklarning hammasi ham o'z hayoti davomida gullab meva tugadi. Ular ildiz, poya, barg, gul, meva va urug'lardan tashkil topgan bo'ladi. Bu ularning o'ziga xos belgilar hisoblanadi. O'simliklar dunyosi million yillar davomida turlicha iqlim sharoitiga, tuproqqa va namlikka moslashib shakllangan. Ularning organlari, ichki tuzilishi, ajoyib xossalari, xususan, hayotiy shakllari, yirik guli va mevasi, ildizi, salobatli shox- shabbasi, umrboqiyligi, ayrim mayda jonzotlar bilan oziqlanishi, kelgusi naslni o'z bag'rida voyaga yetkazib, mustaqil hayotga yo'llanma berishi kabi irsiy belgilari bilan necha asrlardan beri odamlarni o'ziga jalb etib kelmoqda. Har bir o'simlik turining o'ziga xos ajoyib xossalari bor. O'simliklarning xilmaxilligini aks ettiruvchi misollar juda ko'p. Bularga Seyshel orolidagi o'n yillar mobaynida pishib yetiladigan, og'irligi 25 kg ga yetadigan seyshel palmasi yong'oqlari, tanasida 200 l gacha suv saqlaydigan Meksika kaktuslari, Kanar orollarida 6000 yilgacha umr ko'radigan ajdar daraxtlari, Sumatra orolidagi diametri 1 m ga yetadigan rafleziya kabi ulkan gullar misol bo'ladi. Bunday ajoyibotlar o'lkamizdag'i o'simliklar orasida ham ko'plab topiladi. Masalan, jazirama issiqqa bardosh berib, qum uyumlarida o'sadigan, barglari arang ko'rindigan saksovul va qandim, poyasi suv tagida bo'lib, guli suv yuzasida ochiladigan nilufar, hasharotlar bilan oziqlanadigan suv qaroqchisi, tabiat ko'rki bo'lgan qizil lola, ko'zagul, sallagul, chinnigul va jumagullar (xolmon), noyob mevali o'simliklardan pista, bodom, safsanlar, tabobatda ko'p ishlatiladigan chakanda, isiriq, na'matak, suvqalampir va boshqalar o'simliklar dunyosining ajoyib vakillaridir. Gulning tashqi qavati, odatda, yashil rangli gulkosacha barglar bilan o'rangan bo'ladi. Ulardan so'ng rangli gultojbarglar joylashadi. Gulning o'rta qismida changchilar, markazida esa urug'chi joylashadi. Gulli o'simliklarning xilma-xilligi ekologik sharoitning o'zgarishi bilan bog'liq. Ular million yillar mobaynida o'zgarib, yangi muhitga, sharoitga moslasha borgan. Sharoit o'zgarishi bilan o'simliklarda yangi muhitga xos belgilar paydo bo'lgan va bu belgilar vaqt o'tishi bilan sekin-asta mustahkamlangan (irsiylashgan). Natijada maxsus sharoitlarga moslashgan yangi o'simliklar (turlar, turkumlar, oilalar) paydo bo'lgan. Yangi sharoitga moslasha olmagan o'simliklar yo'qolib ketgan. Yuksak o'simliklarni individual hayoti urug'langan bitta tuxum hujayraning rivojlanishidan boshlanadi. Tuxum hujayraning, ya'ni zigitaning keyingi bir necha marta bo'linishidan so'ng to'qimalar va nihoyat ko'p hujayrali organism hosil bo'ladi. Umuman, urug'li o'simliklar ochiq va yopiq urug'li bo'ladi. Yopiq urug'li o'simliklar urug'i rivojlanishi va tuzilishi jihatidan ochiq urug'lilardan farq qiladi. Birinchidan, ochiq urug'lilarning urug'idagi g'amlovchi to'qima- endosperma kelib chiqishi jihatidan gaploid xarakterga ega, ya'ni onalik gametafitining vegetativ qismi hisoblanadi. Gulli o'simliklarning urug'idagi endosperm esa qo'sh urug'lanish jarayoni natijasida hosil bo'lib triploid bo'ladi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARXI

Ikkinchidan, yopiq urug'lilar urug'inining murtagida 1 yoki 2 ta urug'pallalari bo'ladi.

Uchinchidan, yopiq urug'larda urug' po'stining (spermaderma) rivojlanishi urug'ning ikki qavat integumenti ishtirokida bo'ladi.

Ochiq urug'larda urug' po'sti bitta integumentdan hosil bo'ladi. Urug'larning unib chiqishida zarur bo'lgan oziq moddalar urug'ning o'zida to'planadi. Demak, urug' murtagining oziqlanishi geterotrof hisoblanadi. Gulli o'simliklar urug'i, odatda murtak, endosperm va urug' po'stidan iborat. Murtak yangi o'simlikning embrionidir. Gulli o'simliklarning turli vakillarida urug'dagi murtak bilan endosperm bir-biriga nisbatan turli o'lchamdadir. Magnoliyadoshlar, loladoshlar va palmalarda murtak juda kichik o'lchamda, endosperm esa urug'ning deyarli barcha hajmini egallagan bo'ladi. Burchoqdoshlar, qovoqdoshlarda u murtak va po'stdan iborat. Bundan tashqari oraliq guruuhlar ham uchraydi. Urug' po'sti bir necha qavatdan iborat bo'lib, murtakni qurib qolishidan, erta unib tuproqqa urug'ni birikib olishiga yordam beradi. Urug'ni tarqalishida ham ahamiyatga ega. Urug' po'stida suvni shimib bo'kishi uchun mayda teshik bo'ladi, uni odatda urug' yo'li deyiladi. Bundan tashqari, chok ham bo'lib, u urugbandiga birikish joyi hisoblanadi. Endosperm asosan g'amlovchi to'qimadan iborat. Unda kraxmal, oqsil va moy tomchilaridan tashqari zaxira oziq sifatida boshqa moddalar ham to'planishi mumkin. Shunigdek, murtakning tarkibida ham zaxira moddalardan yog'lar, kraxmal va oqsillar uchraydi. O'zida to'playdigan zaxira moddalar tarkibiga ko'ra urug'lar bir necha xil bo'ladi: 1. Kraxmal to'plovchi urug'lar. Bu xil urug'lar tarkibida asosan kraxmal va kam miqdorda oqsillar ham to'planib, ular makkajo'xori, bug'doy, arpa, sholi, javdar va shu kabi o'simliklarda bo'ladi. 2. Oqsil to'plovchi urug'lar bularga soya, mosh, no'xat, beda va boshqa dukkaklilar urug'lari kiradi. 3. Yog' to'plovchi urug'lar bularga kana kunjut, zig'ir, kungaboqar, xantal, kanop, kunjut, yong'oq va shu kabi o'simlik urug'lari kiradi. 4. Sellyuloza (kletchatka) to'plovchi urug'lar. Bunday urug'larga finik va braziliya palma daraxti, kofe va shu kabi o'simlik urug'lari kiradi. Murtakda o'simlikning barcha vegetativ organlari (ildiz va novdalar) bo'ladi. Ildizdan kurtakka o'tish qismi murtak poyachadir, bu qism poyaning birinchi bo'g'im oralig'i bo'lib gipokotil deb ataladi. Murtakdagi dastlabki burglar o'ziga xos tuzilishga ega va ular urug'palla barglar deyiladi. Gulli o'simliklar murtagidagi urug'pallalar soniga ko'ra, bir va ikki pallali deb atalgan ikkita ajdodga (sinfga) bo'linadi. Endospermli urug'lar. Urug'da murtakning unib chiqishi uchun kerakli bo'lgan oziq moddalar maxsus g'amlovchi to'qima - endospermda to'plansa endospermli urug' deyiladi. Bunday urug'lar bug'doydoshlar, ituzumdoshlar va ziradoshlar oilalarining vakillarida aniq ko'zga tashlanadi. Endospermsiz urug'lar. Urug'da murtakning unib chiqishi uchun kerakli zahira oziq moddalar murtakning o'zida, ya'ni urug' pallalarida to'plangan bo'lsa endospermsiz urug' deyiladi. Bu urug'lar burchoqdoshlar (Fabaceae), qoqidoshlar (Asteraceae), qovoqdoshlar (Cucurbitaceae) oilalarining vakillarida uchraydi. G'o'za chigit ham endospermsiz urug' hisoblanib, unda murtak va ikkita qobiqdan iborat. Pardasimon tashqi qobiq yog'ochlangan bo'ladi, unda uzun va qisqa tuklar bilan qoplangan. Ichki pardasimon qobiq juda yupqa va nozik bo'lib murtak xaltachasining qoldig'idir. Burchoqdoshlar oilasi urug'lari murtagida xarakterli xususiyat poyachanining egilgan holda bo'lishidir.

Bir pallalilardan o'qbarg, bulquruq o't va gichchak turlarining urug'lari misol bo'ladi. Qora murchning urug'lari kichkinagina murtak endospermda joylashadi. Uni tashqi tomonidan yirik perisperm o'rabi turadi.

**XULOSA**

Xulosa qilib aytganda; Vegetativ organlar (o'simliklarda) — yuksak o'simliklarning oziqlanishi va tashqi muhit bilan moddalar almashinuvini ta'minlaydigan qism. Vegetativ ko'payish vazifasini bajaradi. Asosiy Vegetativ organlarga barg va poyali novda hamda ildiz kiradi. Barg fotosintez, ildiz suv va mineral moddalarni shimib olish vazifasini bajaradi. Evolyutsiya jarayonida V. o. o'simliklar quruqlikka chiqishi bilan tuzilishining mukammallashuvi tufayli paydo bo'lgan. Tuban ko'p hujayrali % O'simliklar (suv o'tla-ri) va zamburug'larning vegetativ tanasi (tallomi) birmuncha sodda va bir xilda tuzilgan bo'lib, organlarga bo'linmaydi (ipsimon va ayrim plastinkasimon suv o'tlari, zamburug'lar mitselleysi). Ko'pchilik yirik yashil va qo'ng'ir suv o'tlarining tashqi ko'rinishi yuksak o'simliklar organlariga o'xshaydi, ya'ni bargsimon, poyasimon yoki iddzsimon bo'ladi, lekin to'qima tuzilishiga ega bo'lмаган qismlarga bo'linadi. Hayvonlarda V. o. ga ba'zan nafas olish, hazm qilish, ayirish va b. organlar kiritiladi

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:**

1. Azimov I. va boshqalar «Biologiya metodik qo'llanma»,
2. «Ibn Sino» 2002y.
3. Bozorova Sh, Polatov S. Darsdan tashgari ishlarni tashril etish. Maktabda biologia. Manaviy-marifiy, talimiyl jurnal 2012-yil, 5(41)-son. B.6-9.
4. Biologiya oquv fanidan majburiy standart nazorat ishlarini o'tkazish bo'yisha tavsiyalar (5-9 sinf) T.:2006.-59 b
5. Verzilin N.M., Korsunskaya M. «Biologiya o'qitishning umumiy metodikasi»,«O'qituvchi» 1983y.
6. Rozieva N. Uquvchilarни mustaqil ijodiy tafakkurni shakllantirish. Xalq ta'limi.2003.-3-son. 69 b
7. Jizn rasteniy, t. 1—6, M., 1974—82;
8. Vent F.U., V mire rasteniy, M., 1972;
9. Taxtadzyan A.L., Voprosy evolyutsionnoy morfologii rasteniy, L., 1954.